

DESTRUKTIV XULQ ATVOR SHAKILANISHIGA OILAVIY MUXITNING TA'SIRI

Yuldasheva Maxfuza Normirzaevna

University of business and science

Pedagogika va psixalogiya yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada xulqi ogishgan o'smirlar va ularning ijtimoiyashuvida ota onalar va bolalarning munosabatlari xususida fikrlar keltirilgan .

Kalit so'zlar: Oila farzand, tarbiya,ota -ona, tarbiya, ruhiy ta'sir doirasi ruhiy xolat, hulqi og'ishgan dezadaptatsiya , emansipatsiya , addeksiya, vundalizm..

Аннотация: В данной статье представлены мнения об отношении родителей и детей к подросткам с отклонениями в поведении и их социализации.

Ключевые слова: семья ребенок, воспитание,воспитание, воспитание, сфера психического влияния психическое состояние ,отклонение в поведении дезадаптация.

KIRISH

Bugungi kunda jamiyatimizda yoshlarga qaratilayotgan e'tiborlar juda ham katta desak mubolag'a bo'lmaydi chunki ular uchun yaratilgan imkoniyatlar ran barang. SHunday xolatlar bo'ladiki o'smir yoshidagi shaxsda turli hildagi xarakterida o'zgaruvchanlik va tajanglik xolatlari uning ruhiyatida yuzaga keladi bunda esa o'smir istiqomad qiladigan oilaviy muxitning ham o'rni salmoqli darajada borligini fanda amaliy isbotlangan. O'smirlar ijtimoiylashuvida ota ona va bola munosabatlarining psixologik xususiyatlarini o'rganish hamda o'smirlar o'rtasida xulq og'ishini oldini olish, eng avvalo xulq og'ishini keltirib chiqaradigan shart-sharoit va sabablarini bartaraf qilishni taqazo qiladi. Masalaning dolzarbligidan kelib chiqqan xolda hozirgi vaqtda dunyo miqyosida, shu jumladan respublikamizda o'smirlar o'rtasida xulq og'ishining oldini olish borasida bir qator ilmiy va amaliy jixatidan asoslangan chora tadbirlar ishlab chiqilmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning "Malumki, yosh avlod tarbyasi o'tgan zamonlarda ham muxim ahamiyatga ega bo'lib kelgan "Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatdan ham xayot mamot masalasiga aylanib bormoqda. "Tarbiya qancha mukammal bo'lsa xalq shuncha baxtli yashaydi" , donishmandlar; tarbiya mukammal bo'lishi uchun esa bu masalada bshliq paydo bo'lishi mumkin emas, degan takidi, yoshlar tarbiyasiga, ayniqsa oila , onalik va bolalikni ijtimoiy muhofaza qilishga aloxida e'tibor berayotganining dalolatidir. Buyuk

mutafakkir Ibn Sino deydi . Agar yomon xulq odatga kirib qolsa , u mijoz buzilishini keltirib chiqaradi . Masalan g'azab kuchli qizdiradi , qayg'u kuchli ozdiradi , hafsalasizlik nafsoniy quvvatni bo'shashtirib, mijozni balg'amlikka moyil qiladi. Xulqning mo'tadilligi natijasida ham nafas, ham badan sog'lom buladi.

Deviant hulq atvor - mikro ijtimoiy munosabatlar va kichik ijtimoiy guruhlariga xos bo'lgan ijtimoiy meyorlar va hulq atvor qoidalarini buzish bilan bog'liq meyordan og'uvchi xulq atvor turlaridan biridir . Bu xulq atvorni "g'ayriintizomiy " deb atash ham mumkin . Deviant hulq - atvorning yorqin namoyon bo'lishiga namoish agressiya, bolalar va o'smirlar orasidagi aroqxo'rlik ,giyoxvandlik va u bilan bog'liq g'ayriijtimoiy harakatlar , jinsiy tafsifdagi g'ayriahloqiy xatti xarakatlar, o'ziga suyuqqasd qilishga urinishlarni misol qilib keltirsak buiadi. Jamiatda qabul qilingan qoidalar , xulq –atvor me'yorlaridan chetga chiqqan o'smiriarni " qiyin o'smir " yoki "tarbiyasi og'ir o'smir deyiladi . Tarbiyasi og'ir deganda , pedagogik ta'sirga qarshilik ko'rsatish tushuniladi .Tarbiyalash og'ir qabul qilingan meyor va qoidalarga tarbiyalanuvchi tomonidan amal qilinmasligini fanda deviatsiya hodisasi orqali o'rganiladi . Deviatsiya ham insonga ham uni o'rab turgan olamga hos bo'lgan o'zgaruvchanlik hodisasining jihatlaridan biri hisoblanadi.ijtimoiy sohada o'zgaruvchanlik faoliyatga bog'liq bo'lib insonning atrofidagilar bilan o'zaro aks ettiradidan hulq atvorda o'z ifodasini topadi.

O'smirning me'yoridagi xulq atvori uning ijtimoiylashuvi, rivojlanishi, ehtiyojlariga mos tushuvchi mikrosotsium bilan o'zaro munosabatida aks etadi. Agar atrofdegilar o'smirning u yoki bu hususiyatlariga o'z vaqtida e'tibor qaratishsa uning hulq atvori doimo meyorda bo'ladi .Bunday me'yordan og'ishdan xulq - atvor jamiyat tomonidan bola shahsiyati hususiyatlarini inobatga olmaslik oqibatida kelib chiqadi,degan tushuncha paydo bo'ladi. Bolalar va o'smiriar dezadaptatsiyasi haqida gapirganda bu jarayonga yo'liqqan bolalar toifalarini aniqlab olish lozim.Maktabga qatnashmaydigan maktab yoshidagi bolalar ;yetim bolalar;ijtimoiy yetimlar;ular yaxshi ovqatlanmaydilar ijtimoiy ,ruhiy , jinsiy, qiynoqlarga duchor bo'lishadi. Giyohvand va taksin moddalar istemol qiluvchi bolalar; intizomsiz bolalar; jinsiy intizomsiz bolalar ; g'ayriqonuniy hatti xarakatlar sodir etgan bolalar.

Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra ularning soni kattalarga qaraganda ikki hissa tez oshmoqda.Bunday vaziyatda shahsning ahloqiy tarbiyasi , ma'naviy kamoloti masalasi alohida dolzarblik kasb etadi.Malumki shahs kamolotida oilaviy tarbiyaning o'zni beqiyos.Oilaning bolalarga ta'sir doirasi nihoyatda beqiyos. Oilada farzandlar tarbiyasida, ularni kamol topdirishda bir qator muammolarga duch kelinmoqda. Ota – onalar va farzandlar o'rtasidagi salbiy munosabatlar bolalarda hulq og'ishi xamda psixosomatik kasalliklarning kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin.Xulq og'ishi va

tarbiyasida nuqsonlarga ega o'smirlarning ota yoki onasidan birining spirtli ichimlikka ro'jo' qo'yishi holati ham oilada tarbiyalanayotgan bolalarga salbiy ta'sir etib, ularning alkogolizm ko'chasiga kirib ketishlariga sabab bo'ladi. Shu boisdan ota onalardan birining jamiyat ahloq meyorlariga zid bo'lgan hulqqa ega bo'lishi holati bolalar va o'smirlarda hulq og'ishining kelib chiqishiga va tarbiya buzilishiga sabab bo'lishi kuzatiladi. Oilaviy tarbiya inson ma'naviy kamolotida muhim o'rin tutadi. Oila birlamchi hayotiy ko'nikmalarni, Vatanga muhabbat, ota ona va atrofdagilarga sadoqat kabi yuksak axloqiy va ma'naviy sifatlarini shakillantirishda turmushga, ijtimoiy faoliyatga nisbatan psixologik va amaliy jihatdan katta imkoniyatlarga egadir. Oilada farzandni tarbiyalashda, ularni kamol topdirishda mavjud muammolar, nuqsonlar, bolalarning xulq atvoriga, shaxs sifatida shakillanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ma'naviy axloqiy jihatdan sust rivojlanganlik va shaxsdagi o'ziga xos xususiyatlar (o'zgaruvchanlik, qo'zg'aluvchanlik, beqarorlik, xissiyotga beriluvchanlik, tobelik va juratsizlik va boshqalar) bolalar va o'smirlarda deviant xulqning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Shaxsning ma'naviy ahloqiy jihatdan barkamolligi esa ijtimoiy turmushda vujudga keladigan turli xil nizoli vaziyatlardan chiqib ketishiga yordam beradi. Voyaga yetmaganlarda deviant, xulq o'g'ishi va tarbiya buzilishining kelib chiqishiga ta'sir etuvchi yana bir omil ota onalarda farzand tarbiyasiga doyr bilimlarning yetarli emasligidir. Bolalarga profilaktik ta'sir ko'rsatishda o'smirning shaxs sifatidagi shakillanishi jarayonini, uning o'ziga xos xususiyatlarini, xarakter xislatlari va psixologiyasini hisobga olgan holda ish tutish yaxshi natija berishini unutmaslik lozim. Farzand tarbiyasida ularning yoshiga oid va psixologik xususiyatlarini bilish hamda xisobga olish o'ta muhimdir. Shuningdek, ularda o'ziga ishonch o'z xulqini yaxshilash mativlarini quyidagicha shakillantirish zarur. Bolalarga o'z hulq atvorlarini o'zi baxolashga o'rgatish, farzandiga bo'lgan ishonch; oilada oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarishda erishgan yutuqlarini rag'batlantirish, tarbiya berishning optimal strategiyasini aniqlash, bolalarga mustaqil faoliyat (o'qish, o'yin, mehnat, va qiziqishlarini) tanlash uchun imkoniyat berish.

Oila markazlari, amaliyotchi psixologlar, shifokorlar bilan maslahatlashish. Ayrim oilalarda bolalar va o'smirlarga yetarlicha sharoit yaratib berilmasligi, ular faoliyatni cheklash, ularda o'zni nochor, yordamga muhtoj his qilish, muammoli vaziyatlardan chiqib ketish qobiliyatining susayishiga olib keladi. Oilalarda nosog'lom psixologik muhitning mavjudligi oilaviy munosabatlar yaxshi emasligi, oilaviy ajralishlar ota onalardan biri yo'qligi oilaviy tarbiyadagi yo'l qo'yilyotgan nuxsonlar hamda oilaning tarbiyaviy ta'sirga ega emasligi holatlari bolalar va o'smirlarda jinoyatchilik hulqining kelib chiqishiga sabab bo'ladi. O'smirlarda tarbiya buzilishining kelib chiqishida modiy yetishmovchilik ko'pincha sabab sifatida emas, balki hulq og'ishining kelib cheqishi uchun qiziqish va shart-sharoit tarzida xizmat

qilgani kuztiladi. Demak aytish mumkinki, o'smirlarda tarbiya buzilishning kelib chiqishida iqtisodiy yetishmovchilik asosiy sabab sifatida namayon bo'lmaydi. U faqatgina muayan shart-sharoit sifatida xizmat qiladi.

Xulosa tarzida shuni aytishimiz mumkinki o'smir yoshidagi bolalarda oilaning va ota-oanaing xulq-atvoriga ta'siri judda katta xisoblanadi manashunday munosabatlarni inobatga olib farzandlariga ta'lim va tarbiya berishsa albatda bolada deviant xarakter shakilanmaydi.

FOYDALANILGAN ADABOYOTLAR:

1. Komilova H.G'. Xulqi og'ishgan bolalar psixologiyasi : Uslubiy qo'llanma.- T.2008
2. Nishanova Z.T .Tulyaganova . SH.T .O'smirlik davrida kurquv xolatlarining namoyon bo'lishi :Uslubiy qo'lanma .-T.,2009
3. В.М. Umarov Tarbiyasi qiyin bolalar bilan ishlashda psixologik xizmatning o'rni. //uslubiy qo'llanma. –T. –2008, 86-bet.
4. Зимелева З.А. Агрессивное поведение подростков и личность родителей / Публикации в журналах портала ПсйЖоурналс.ру // Психологическая наука и образование. 2001. том 6, № 4 с. 22-27 5. Formation of constructive behavior as a factor in the effectiveness of schoolchildren's education
5. Odilboyevich, J. X. (2024). Psychological Description of Teenage Outlaws in Interpersonal Relationships. *Journal of Preschool Education and Psychology Research*, 1(1), 20-22.
6. Odilboyevich, J. X. (2023). PSYCHOTIC AND LIMITED NEUROTIC LEVELS DURING PERSONALITY SOCIAL LIFE. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 21(4), 27-34.
7. Jurayev, X. O. (2023). О 'spirinlik yoshida shaxsda stressli vaziyatlarda individual koping strategiyalarning o'rni va axamiyati. *Educational research in universal sciences*, 2(4 SPECIAL), 512-515.
8. Жураев, X. O. (2023). В ЗАВИСИМОСТИ ОТ ПРЕДПОЧТЕНИЙ ПСИХОГЕОМЕТРИЧЕСКИХ ФОРМ ХАРАКТЕРА ЛИЧНОСТИ С. ТИПОЛОГИЯ ДЕЛЛИНДЖЕРА. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(15), 601-603.
9. Odilboyevich, J. X., & Yuldashboyevich, A. S. (2024). SHAXSNING PSIXOLOGIK SENZITIVLIK DARAJASI VA UNING PSIXOLOGIK TIPOLOGIYASI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 47(3), 145-148.
10. Odilboyevich, J. X. (2023). Psychopathic character and psychopathological characteristics of delinquent behavior in children of adolescent and adolescent age. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 3(5), 99-104.